FARG‘ONA VILOYATIDA CHORVACHILIK TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA HUDUDIY JOYLASHTIRILISHINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Djo‘raboyeva X.Sh. Farg‘ona davlat universiteti, g.f.f.d. (PhD)
gmail-x.djuraboyeva75@gmail.com
Omonbayev Z.T. Farg‘ona davlat universiteti, talaba
gmail-ziyodulloomonbayev12@gmail.com

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng qadimgi, eng keng tarqalgan va strategik jihatdan muhim tarmog‘idir. Mamlakatimizda tabiiy, tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirida bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari shakllangan. Qorako‘l qo‘ylari bundan 8000 yil ilgari, qorabayir otlari eramizdan oldingi II-I ming yilliklardan boqila boshlagan. Qadimgi Xorazm, Farg’ona, Surxondaryo va boshqa hududlarda sug’orma dehqonchilik bundan 5000 yil oldin boshlangan.

Chorvachilik va dehqonchilik qishloq xo‘jaligining bir-biri bilan uzviy aloqador holda rivojlanadigan ikki yirik tarmog‘i bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi. Chorvachilik tarmoqlarida yaratilgan mahsulotlar dehqonchilikda moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga, ekinlar hosildorligini oshirishga imkoniyat yaratsa, dehqonchilik ham o‘z navbatida chorvachilik uchun juda zarur bo‘lgan ozuqa bazasi – yem-xashakning katta qismini etkazib beradi. Shuningdek, dehqonchilikda ayrim ekinlar etishtirishda asosiy mahsulot bilan birga, chorvachilikda foydalaniladigan qo‘shimcha mahsulotlar (somon, poxol, kepak, sabzavotchilik chiqindilari, kartoshkachilik chiqindilari, bog‘dorchilik chiqindilari va boshqalar) ham olinadi. Bu esa chorva mollari uchun em vazifasini bajaradi. Yem-xashak etishtirishni ko‘paytirish, uning sifatini yaxshilash chorva mahsuldorligini oshirishning zaruriy shartidir.

O‘zbekistonning tabiiy-iqlim sharoiti va aholining atrof muhit bilan bog‘liq holda rivojlangan milliy qadriyatlarini hisobga oladigan agrar siyosat ishlab chiqildi. Qishloq xo‘jaligini boshqarish tizimi, xo‘jalik yuritish shakllari va ekinlar tarkibi takomillashtirildi, chorvachilik tarmoqlarini barqaror rivojlantirishga e’tibor qaratildi. 2024-yil ma’lumotlariga ko’ra, qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibida, dehqonchilikning ulushi 51,7 %, chorvachilikning ulushi esa 48,3 % tashkil qildi. Chorvachilik o‘z ahamiyati jihatdan qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida dehqonchilikdan keyingi o‘rinda tursada, aholini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat tarmoqlarini xom ashyo bilan ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Farg‘ona viloyati mamlakatimizda o‘zining mehnat resurslari salohiyati, cheklangan yer resurslari va intensiv dehqonchilik madaniyati bilan ajralib turadi. Viloyat qishloq xo‘jaligida chorvachilik muhim o‘rin egallab, aholining go‘sht, sut, tuxum, тери va boshqa chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Statistika agentligi ma’lumotlarga ko‘ra, viloyat qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining 41 %ni chorvachilik tarmog‘i yetkazib beradi. Aholining chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabini ortib borishi mazkur tarmoqni hududiy jihatdan to‘g‘ri joylashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mavjud tabiiy hamda iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Chorvachilikning geografik xususiyatlarini o‘rganish viloyat tumanlarining

ixtisoslashuvini aniqlash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Farg‘ona viloyati mamlakatimizdagi yer fondida pichanzor va yaylovlar eng kam bo‘lgan 5ta viloyat (Namangan, Andijon, Farg‘ona, Sirdaryo, Xorazm) ning biridir. Viloyatda chorvachilikning rivojlanishi va hududiy joylashuvi bir qator omillar bilan belgilanadi. Jumladan, tabiiy sharoit, yer fondining tarkibi, suv resurslari bilan ta’minlanganlik holati, ozuqa bazasi, iste’mol bozori, transport-geografik o‘rni, qayta ishlash korxonalarining joylashuvi kabi omillar mazkur tarmoqning rivojlanishida muhim rol o’ynaydi.

Farg‘ona viloyati yer fondining asosiy qismini qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tashkil qiladi. Ta’kidlash joizki, viloyatda qishloq xo‘jalik maqsadlariga ajratilgan yerlarning salmog‘i respublikamizning o‘rtacha ko‘rsatkichidan ancha yuqori. O‘zbekiston Respublikasi hududining 50,3 foizi qishloq xo‘jaligi maqsadidagi yerlar toifasiga kirsa, Farg‘ona viloyatida bu ko’rsatkich 81,5 foizni tashkil etadi. Ekin yerlar qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning 78,3%ni tashkil qilgani holda, yaylov va pichanzorlar atigi 7,4 %. Sug‘orma dehqonchilik, xususan Oltiariq, Qo‘shtepa, Quva, Toshloq tumanlarida yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, yaylov va pichanzorlar esa Rishton, O‘zbekiston, Beshariq, Bog‘dod tumanlarida ko‘proq.

Chorvachilik tarmoqlarining rivojlanishida ozuqa bazasi alohida ahamiyatga ega. Viloyatda aholi zichligining yuqoriligi va yer resurslarining cheklanganligi va asosan intensive sug’orma dehqonchilik, xususan, g‘allachilik, sabzavotchilik, qisman paxtachilik tarmoqlarida bandligi keng ko‘lamli yaylov chorvachiligini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi, ammo intensiv ferma komplekslarida chorvachilikning qoramolchilik va parrandachilik tarmoqlarini rivojlantirish imkonini beradi. Bunday xo‘jaliklarda chorva mollari asosan tayyorlangan ozuqa bilan boqiladi va mavjud yer maydonlaridan nisbatan samarali foydalanishga imkon yaratiladi. Tog‘oldi va adir hududlarida xususan, Farg‘ona, Quva va So‘x kabi tog‘oldi hududlaridagi tabiiy yaylovlar hisobiga qo‘ychilik va echkichilik rivojlantirish mumkin.

Farg‘ona viloyati O‘zbekistonda pilla yetishtirish va uni qayta ishlash bo‘yicha tarixiy markazlardan biridir. Oxirgi yillarda parhez go‘sht va tuxum yetishtirishga ixtisoslashgan yirik parrandachilik majmualari ishga tushirildi. Marg‘ilonsoy, Farg‘ona kanallari va sun’iy havzalarda intensiv usulda baliq yetishtirish ham qishloq xo‘jaligi tarkibida yangi o‘sish nuqtasiga aylandi.

Chorvachilikning rivojlanish darajasini aniqlashda chorva mollari bosh soni muhim statistik ko‘rsatkich hisoblanadi. 2024 yil ma’lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona viloyatining barcha toifadagi xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1 074,5 ming boshni tashkil etib, shundan 387,6 ming boshi sigirlarga to’g’ri kelgan. Qo‘y va echkilarning umumiy soni 933,0 ming boshni, yilqilar soni 10,3 ming boshni, parrandalar soni esa 8,9 mln boshni tashkil qilgan.

Farg‘ona viloyatida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi ham yillar davomida o‘sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Xususan, 2024-yilda viloyatda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 3 391,9 mlrd so‘mni tashkil etgan. 2024-yilning dastlabki uch oyida viloyatda 42,7 ming tonna go‘sht, 228,6 ming tonna sut, 108,80 mln dona tuxum, 864,2 tonna ovlangan baliq va 90,0 tonna jun ishlab chiqarilgan. 2026-yilning yanvar–iyun oylarida viloyatda 97,0 ming tonna go‘sht, 491,7 ming tonna sut, 376,9

mln dona tuxum, 680,4 tonna jun va 5 751,0 tonna baliq yetishtirilgan. Mazkur ko‘rsatkichlar viloyat chorvachiligida nafaqat an’anaviy go‘sht va sut yetishtirish, balki parrandachilik va baliqchilik kabi yo‘nalishlarning ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Farg‘ona viloyatida chorvachilik tarmoqlari hududlar bo‘yicha bir xil rivojlanmagan. Bunga aholi zichligi, iste’mol bozori, ozuqa bazasi, tabiiy sharoit va xo‘jaliklarning ixtisoslashuvi ta’sir ko‘rsatadi. Viloyat hududlari kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Farg‘ona, Buvayda, Bag‘dod, va Dang‘ara tumanlarida qayd etiladi. Qoramolchilikning sut-go‘sht yo‘nalishi bo‘yicha Farg‘ona, Buvayda, Bag‘dod, Qo‘shtepa va Rishton tumanlari ajralib turadi. Mazkur hududlarda aholi va iste’mol bozoriga yaqinlik, intensiv boqish tizimining ustunligi hamda ozuqa bazasining mavjudligi qoramolchilik rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. Farg‘ona tumani yalpi mahsulot hajmi bo‘yicha viloyatda yetakchi hudud hisoblanadi. Parrandachilik esa asosan shahar atrofi hududlarida, jumladan Marg‘ilon, Farg‘ona va Qo‘qon atrofida rivojlangan. Bunda asosiy omillardan biri yirik iste’mol bozorlariga yaqinlikdir.

Farg‘ona viloyatida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning muhim xususiyati - dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining yuqori ulushidir. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yil yanvar-iyun oylarida go‘sht yetishtirish hajmining 70,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi 20,8 foiz, fermer xo‘jaliklarining ulushi esa 8,7 foizni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichlar viloyat chorvachiligida aholining shaxsiy xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklari katta iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yirik naslchilik fermalari va klasterlarning tashkil etilishi chorvachilikni sanoat asosida rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, viloyatda samaradorlikni oshirish maqsadida yirik naslchilik fermalari va klasterlar tashkil etilmoqda. Chorva zotlarini yaxshilash, mahsuldorlikni oshirish, zamonaviy boqish texnologiyalaridan foydalanish va ozuqa bazasini mustahkamlash tarmoqning rivojlanishidagi muhim yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Farg‘ona viloyatida chorvachilikning rivojlanishi bilan bir qatorda qator muammolar ham mavjud. Ulardan biri ozuqa bazasining hududlar bo‘yicha notekisligi hisoblanadi. Suv tanqisligi va cho‘llanish jarayonlari ayrim hududlarda ozuqa bazasining imkoniyatlarini cheklaydi. Xususan, Yozyovon va markaziy cho‘l hududlarida suv tanqisligi va cho‘llanish jarayonlari chorvachilik uchun ozuqa bazasiga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ekologik muammolar, jumladan tuproqlarning sho‘rlanishi va eroziyasi, yaylovlarning mahsuldorligini kamaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona viloyatida chorvachilikni kelgusida rivojlantirish uchun hududlarning tabiiy va iqtisodiy-geografik imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Tog‘oldi hududlarida tabiiy yaylovlardan samarali foydalanish asosida go‘sht-sut yo‘nalishidagi chorvachilikni rivojlantirish mumkin. Sug‘oriladigan hududlarda esa ozuqa ekinlarini yetishtirishni kengaytirish, almashlab ekishni ilmiy asosda tashkil etish va chorvachilikni dehqonchilik bilan uyg‘unlashtirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdug‘aniyev A., Abdug‘aniev A.A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. -T.: “TDIU”, 2014.
2. Ahmadaliyev Yu.I. Yer resurslaridan foydalanish geoekologiyasi.- T.: “Fan va texnologiya”, 2014, 340 b